Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	
Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxnunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi.....	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi.....	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash.....	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish.....	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish.....	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari.....	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Irismatovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	



O'TKIR REVMATIK ISITMASI BOR BOLALARDA KARDIOMETRIYA KO'RSATKICHLARINING STATISTIK TAHLILI



Muxamadiyeva Lola Atamuradovna

3-son pediatriya va tibbiy genetika kafedrası professori
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
orcid.org/0000-0003-1042-9479

Annotatsiya: A guruhidagi beta-gemolitik streptokokk infeksiyasining takroriy epizodlarini oldini olish revmatik yurak kasalligini bartaraf etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Biroq mavjud profilaktika choralarining ilmiy asoslari eskirgan bo'lib, ularning hozirgi zamon sharoitidagi samaradorligi shubha ostida qolmoqda. Bu holat diagnostika va profilaktikaga zamonaviy, ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etishni taqozo etadi. Klinik aniqlikning pastligi zamonaviy laborator va kardiometrik texnologiyalarni qo'llash zarurligini ko'rsatmoqda. Ilmiy tadqiqotlar revmatik yurak kasalligini erta aniqlash va profilaktika qilishda aniq va samarali yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilishi lozim.

Kalit so'zlar: revmatik yurak kasalligi, streptokokk infeksiyasi, profilaktika, kardiometriya, zamonaviy diagnostika.

Abstract: Preventing recurrent episodes of Group A beta-hemolytic streptococcal (GABHS) infection plays a crucial role in eliminating the risk of rheumatic heart disease (RHD). However, the scientific basis of current preventive measures is outdated, and their effectiveness in modern conditions is increasingly questioned. This highlights the need for introducing modern, evidence-based approaches to diagnostics and prevention. The limited clinical accuracy necessitates the use of advanced laboratory and cardiometric technologies. Scientific research must focus on developing precise and effective strategies for early detection and prevention of RHD.

Key words: rheumatic heart disease, streptococcal infection, prevention, cardiometry, modern diagnostics.

Аннотация: Профилактика рецидивов инфекции бета-гемолитического стрептококка группы А играет ключевую роль в предотвращении развития ревматической болезни сердца (РБС). Однако научные основы существующих профилактических мер устарели, и их эффективность в современных условиях вызывает сомнения. Это подчеркивает необходимость внедрения современных, научно обоснованных подходов к диагностике и профилактике. Недостаточная точность клинической диагностики требует активного использования лабораторных и кардиометрических технологий. Научные исследования должны быть направлены на разработку более точных и эффективных методов раннего выявления и предупреждения РБС.

Ключевые слова: ревматическая болезнь сердца, стрептококковая инфекция, профилактика, кардиометрия, современная диагностика.

KIRISH

So'nggi yillarda yurak-qon tomir tizimi kasalliklarining bolalar orasida uchrash chastotasi oshib borayotgani sog'liqni saqlash tizimining dolzarb muammolaridan biriga aylangan. Ayniqsa, o'tkir revmatik isitma (ORI) bilan kasallangan bolalarda yurak faoliyatida yuzaga keladigan o'zgarishlar, revmokardit xavfi va keyinchalik rivojlanadigan surunkali yurak yetishmovchiligi holatlari jiddiy klinik va epidemiologik ahamiyatga ega. ORI bolalar organizmida autoimmun yallig'lanish reaksiyalarini qo'zg'atib, yurak mushaklari va klapan tuzilmalariga chuqur zarar yetkazadi. Bunday o'zgarishlarni erta bosqichda aniqlash va tahlil qilish esa kasallik oqibatlarini kamaytirishda muhim o'rin tutadi.



Kardiometriya — yurakning asosiy funksional va metabolik parametrlarini baholash imkonini beruvchi zamonaviy diagnostika usullaridan biri bo'lib, ayniqsa pediatriya amaliyotida ORI bilan kasallangan bemorlar uchun dolzarb hisoblanadi. Ushbu usul orqali yurak chiqaruvchi hajm, qon aylanish dinamikasi, energiya almashinuvi ko'rsatkichlari (masalan, laktat, kreatin fosfat darajalari) o'rganiladi. Statistik tahlil esa bu ko'rsatkichlarning normadan og'ishini aniqlash, ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash va klinik qarorlar qabul qilishda asos bo'luvchi ishonchli natijalarni taqdim etish imkonini beradi.

Mazkur ilmiy maqola o'tkir revmatik isitmasi bor bolalar guruhida kardiometrik parametrlarning statistik tahlilini amalga oshirib, yurak faoliyati samaradorligi va metabolik o'zgarishlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga yo'naltirilgan. Tadqiqot natijalari, ORI fonida yurak mushaklarida yuzaga keladigan o'zgarishlarning chuqurligi va ularning prognoz qiymatini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, maqola pediatrik kardiologiyada statistik usullardan foydalanishning amaliy ahamiyatini namoyon etishga harakat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

O'tkir revmatik isitma (O'RI) va uning oqibatlarini rivojlanayotgan mamlakatlarda sezilarli darajada kasallanish va o'lim holatlariga sabab bo'lmoqda. Biroq ushbu holatlar global sog'liqni saqlashning muhim muammosi sifatida yetarlicha e'tirof etilmayapti. O'RI bolalarda orttirilgan yurak nuqsonlari va nogironlikning keng tarqalgan sababi sifatida qayd etiladi (Andriyashkina D.Yu. va boshq., 2023). Ma'lumki, yurak-qon tomir tizimi bilan bog'liq muammolar butun dunyo bo'ylab o'limning eng ko'p uchraydigan sabablaridan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda dunyo bo'yicha 55 million nafar inson surunkali yurak revmatik kasalligi (SYuRK) bilan kasallangan bo'lib, bu har yili 360 ming kishining hayotiga zomin bo'lmoqda (JSST, 24.01–2025).

A guruhiga kiruvchi β -gemolitik streptokokk sababli yuzaga keluvchi faringit qaytalanishining oldini olish hozirda og'ir revmatik yurak nuqsonlari rivojlanishining eng samarali profilaktik usuli sifatida e'tirof etilmoqda. Biroq ushbu tavsiyalar dalillari ishonchsiz bo'lib, ular 50 yildan ortiq vaqt avval o'tkazilgan tadqiqotlarga tayanadi [3; 4; 9]. Yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlar bolalarda ushbu kasallik asoratlarini o'rganish va ularning oldini olish zarurligini yana bir bor tasdiqladi (Liang Y. et al., 2023).

Shuningdek, revmatik isitmaning turli klinik ko'rinishlari va klinik tashxisning past aniqligi tashxislashda laboratoriya usullarining kompleks qo'llanilishini talab etmoqda [7; 8]. Bu jarayonda mikrobiologik usullar bilan bir qatorda immunologik diagnostika ham muhim rol o'ynaydi (McMillan D.J. et al., 2021).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Quyidagi bosqichlar amalga oshirildi:

1. Materialni statistik tahlilga tayyorlash.
2. Bevosita statistik tahlil.

Barcha hisob-kitoblar shaxsiy kompyuterda Microsoft Office 2017 (Microsoft Corp., AQSh) dasturiy paketlaridan foydalangan holda amalga oshirildi. Olingan ma'lumotlar tahlili variatsion qatorning o'rtacha arifmetik qiymati (M) va uning standart xatosini (m) hisoblashni o'z ichiga oldi. Taqqoslanayotgan guruhlarda olingan farqlarning ishonchliligi Studentning t -mezoni bo'yicha baholandi. Statistik tahlil Stat Tech v. 4.6.1 dasturi yordamida amalga oshirildi (ishlab chiqaruvchi — "Stat Tech" MChJ, Rossiya). Miqdoriy ko'rsatkichlar Shapiro–Uilk mezonini yordamida normal taqsimotga muvofiqligi bo'yicha baholandi. Normal taqsimotga ega bo'lgan miqdoriy ko'rsatkichlar o'rtacha arifmetik qiymatlar (M) va standart chetlanishlar (SD), 95% ishonch oralig'i chegaralari (95% DI) yordamida tavsiflandi. Normal taqsimotga ega bo'lmagan hollarda miqdoriy ma'lumotlar mediana (Me) hamda quyi va yuqori kvartillar ($Q1$ – $Q3$) yordamida tavsiflandi. Foiz ulushlari uchun 95% ishonch oralig'larini Klopfer–Pirson usuli bo'yicha hisoblandi. Ko'p maydonli qo'shma jadvallarni tahlil qilishda foiz ulushlarini taqqoslash Pirsonning χ^2 -kvadrat mezonini yordamida amalga oshirildi.

Kardiometriyani o'tkazish uchun biz "KARDIOKOD" diagnostik kardiologik asbobidan foydalandik. Bu qurilma juda sodda va yuqori aniqlikka ega bo'lib, har qanday o'zgarishlarni tezda aniqlash va yurak-qon tomir tizimidagi jarayonlarning rivojlanishini kuzatish imkonini beradi. Ushbu asbobda yurak siklining 10 ta fazasining har birida yurak-qon tomir tizimining har bir tuzilmasi funksiyalarining holati baholandi. Bunda yurak ishining kompensatsion mexanizmi, miokard mushaklarida kislorod miqdori, laktat va kreatinfosfat darajasi aniqlanib, yurakning holati hamda ish resursi baholandi. Bundan tashqari, asbob kichik gabaritga ega bo'lib, oddiy sharoitlarda hech qanday cheklovlarisiz qo'llanilishi mumkin. Ma'lumotlarni ro'yxatga olish jarayonini hamshira amalga oshirishi mumkin. Bemorni tayyorlash, yurak signallarini olish va yakuniy qaror qabul qilishgacha bo'lgan butun jarayon bir necha daqiqa vaqt oladi.

Ilmiy tadqiqot Samarqand davlat tibbiyot universiteti (rektor — prof. J.A. Rizaev) ko'p tarmoqli klinikasining (bosh shifokor — prof. N.N. Abdullaeva) bolalar kasalliklari bo'limida (bo'lim mudiri — B.K. Ochilov) va klinikaning Maslaxat poliklinikasida 2021–2024-yillar davomida olib borildi. Kuzatuv ostida 5 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan 90 nafar o'tkir revmatik isitma tashxisi qo'yilgan bemor ishtirok etdi.



O'tkir revmatik isitma tashxisi Amerikaning Kardiologlar Assotsiatsiyasi (AKA, 2015-yil) tomonidan taklif etilgan Kisel–Djons mezonlariga muvofiq belgilandi [5]. Djons mezonlarining yangi tahririda kasallik rivojlanishining epidemiologik xavf darajasiga qarab O'Rning tashxis belgilariga differensial yondashuv tamoyili asos qilib olingan. Bundan tashqari, amaldagi Djons mezonlarini endokard zararlanishining dopplerografik dalillari bilan to'ldirish taklifi ilgari surilgan. Doppler–exokardiografiya ma'lumotlariga ko'ra, valvulit mavjudligi O'Rning asosiy tashxis mezonini sifatida qaraladi [2; 6].

Tahlil va natijalar

Yurak-qon tomir tizimini tekshirishning noinvaziv usuli bo'lgan kardiometriya yordamida organizmning moslashuv ko'rsatkichlarini baholash maqsadida Baevskiy bo'yicha zo'riqish indeksi (ZI), yurak indeksi (Yul), tomirlar qattqlik indeksi (TQI) va yurak-qon tomir kasalliklari hamda ularning asoratlari rivojlanish xavfi indeksi (XI) o'rganildi.

Yurak ritmining o'zgaruvchanligi ko'rsatkichi — R.M. Baevskiy bo'yicha zo'riqish indeksi (ZI) — yurak regulyatsiyasiga bo'lgan umumiy ta'sirni aks ettiradi. Uni hisoblash R–R intervallarini tahlil qilishga asoslangan bo'lib, bu intervallar asosida o'rtacha qiymatdan og'ishga mos keladigan takrorlanish soni aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkich organizmning zo'riqish holati, yurak ritmining o'zgaruvchanligi hamda yurak-qon tomir tizimi boshqaruv markazlarining faoliyatini tavsiflaydi. Jismoniy zo'riqish, surunkali charchoq, yosh bilan bog'liq fiziologik o'zgarishlar yoki turli kasalliklar ta'sirida ushbu ko'rsatkich ortadi. Devoriy sog'lom bolalarda zo'riqish indeksi $62,5 \pm 7,9$ ni tashkil etdi. Yurak indeksi (Yul) — yurakning nasos funksiyasini ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, u qon aylanishining daqiqalik hajmining tana yuzasi maydoniga nisbati orqali aniqlanadi. Me'yoriy qiymati $2,4 \pm 0,11$ l/min/m² ni tashkil etadi.

Tomirlarning qattqlik indeksi (TQI) esa tomirlar elastikligining pasayishini ifodalovchi mezon hisoblanadi. Yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanish xavfi indeksi (XI) esa ushbu kasalliklar va ularning asoratlari yuzaga kelish ehtimolini ko'rsatadi. Ushbu indeks me'yoriy sharoitda $0,05 \pm 0,008$ U.E.ni tashkil qiladi. 1-jadvalda O'RI tashxisi qo'yilgan bemorlarda yosh guruhlariga qarab kardiometriyaning moslashuv parametrlarini o'rganish natijalari keltirilgan (1-jadval).

1-jadval.

Parametrlar	O'RI	Norma (n=40)
	n=58	n=40
Zo'riqish indeksi	$223,6 \pm 15,5^*$	$62,5 \pm 7,9$
Yurak indeksi l/min/m ²	3.53 ± 1.20	$2,4 \pm 0,11$
Tomirlarning qattqlik indeksi mm.rt.st./ml	1.80 ± 0.55	$1,2 \pm 0,09$
Xavf indeksi u.e.	$0.19 \pm 0.04^*$	$0,05 \pm 0,008^*$

Yuqorida ta'kidlanganidek, aerob jarayonlarning samaradorligi me'yorga nisbatan pasaygan, mushaklarda sut kislotasining to'planishi bilan ifodalanadigan anaerob jarayonlar esa ortgan. Bu holat organizmning anaerob ish rejimiga o'tayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, zo'riqish indeksi $223,6 \pm 15,5$ dan $267,6 \pm 21,2$ gacha oshgan bo'lib, bu me'yoriy qiymatga ($62,5 \pm 7,9$) nisbatan ancha yuqori ($r < 0,05$).

Bu yurak faoliyatining juda yuqori, ammo kritik darajaga yetmagan ko'rsatkichidir va yurak-qon tomir tizimi funksional zaxiralarining keskin zo'riqayotganini bildiradi. Shuningdek, tomirlarning qattqlik indeksi ham oshgan bo'lib, bu holat O'RI bilan kasallangan bolalarda qayd etilgan ($180 \pm 0,55$ mm.sim.ust./ml.mos). Bu ko'rsatkich tomirlar elastikligining pasayganini anglatadi. Boshqa tomondan, yurak indeksi referens qiymatlar darajasida saqlangan.

Keltirilgan barcha ko'rsatkichlar O'RI sharoitida yurak-qon tomir tizimi faoliyatiga sezilarli yuklama tushayotganini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanish xavfi indeksi o'rtacha $0,19 \pm 0,04$ U.E.ni tashkil etib, bu bolalarda yurak shikastlanishi ehtimoli yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuni ta'kidlash lozimki, turli yosh guruhidagi bolalarda yurakning moslashish qobiliyatiga oid kardiometrik ko'rsatkichlar o'rtasida sezilarli farqlar aniqlanmadi, ya'ni bu parametrlar yoshga bog'liq emasligi kuzatildi.

Bolalarda O'RI sharoitida yurak-qon tomir tizimi faoliyatini baholash uchun biz asosiy kardiometriya ko'rsatkichlari — R.M. Baevskiy usuli bo'yicha zo'riqish indeksi, otilish fraksiyasi (RV-1, %), kislorod va laktat



darajalari — bo'yicha jismoniy zo'riqishdan oldin va keyin (bemorlarning o'rtacha 10 marotabagacha yarim o'tirib turishi) o'zgarish dinamikasini tahlil qildik. Bu qiymatlar ikki o'lcham oralig'idagi farq asosida aniqlanadi va yangi yondashuv sifatida tavsiflanadi.

2-jadvalda O'RI tashxisi qo'yilgan bolalarda ortostatik sinamadan oldin va keyin o'tkazilgan kardiometrik tekshiruvning asosiy ko'rsatkichlari natijalari keltirilgan (2-jadval).

2-jadval. O'RI bilan kasallangan bemorlarda yoshga qarab ortostatik sinamada kardiometriyaning asosiy ko'rsatkichlari.

yoshi	O'RI (n=58)	Norma (n=40)
avval	5.63±0,16*	3,6±0,11*
keyin	6.83± 0.33*	4,2±0,14*
avval	0.48±0.03	0,55±0,02
keyin	0.46±0.03	0,53±0,02
avval	50.50±2,15*	70,9±2,37*
keyin	43.57±1.98*	59,5±3,21*
avval	187,5±20,5	62,5±7,9
keyin	299,1±21,2	63,8±4,3

2-jadvalda ko'rsatilganidek, barcha yosh toifalarida jismoniy zo'riqishdan keyin laktat darajasining sezilarli oshishi qayd etildi. Laktatning ortishi barcha yosh guruhlarida o'xshash o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, ko'rsatkichlar o'rtacha 1 U.E. ga yaqin farqni tashkil etdi. Bu holat yurak faoliyatiga ortiqcha yuklama tushayotganini bildiradi.

Kislorod miqdori tahlili shuni ko'rsatdiki, O'RI bilan kasallangan bemorlarda, ayniqsa 5 yoshdan 9 yoshgacha bo'lgan bolalarda yuklamadan keyin kislorod darajasining sezilarli ($r<0,05$) pasayishi kuzatildi — u $0,51\pm0,04$ U.E.ni tashkil etdi. 10 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar guruhida ham kislorod darajasining pasayishi qayd etilgan, ammo bu o'zgarishlar statistik jihatdan ishonchli emas edi.

Barcha yoshdagi O'RI bilan kasallangan bemorlarda kardiometriya ko'rsatkichlari asosida jismoniy zo'riqishga nisbatan otilish fraksiyasi dinamikasining tahlili yurakning zarba hajmi bo'yicha sezilarli ($r<0,05$) pasayishini ko'rsatdi. Shuningdek, zo'riqish indeksi ko'rsatkichlarini baholash natijasida, jismoniy zo'riqishdan keyin barcha yosh toifalarida bu indeksning o'sishi aniqlandi. Bu yurak-qon tomir tizimining zo'riqish holatida ekanligini anglatadi. 3-jadvalda O'RI bilan kasallangan bemorlarda subklinik karditni tashxislashda kardiometriyaning samaradorligi ko'rsatilgan (3-jadval).

3-jadval. O'RI bilan kasallangan bemorlarda subklinik karditni tashxislashda kardiometriyaning samaradorligi.


Ko'rsatkichlar	Kategoriyalar		p
	O'RI (Exo-KG o'zgarishsiz) $Q_1 - Q_3$ n=11	Subklinik kardit (MR) $Q_1 - Q_3$ n=19	
Laktat	2,00 – 2,50	6,16 – 7,29	< 0,001*
Kislorod	3,20 – 4,92	0,32 – 0,50	< 0,001*
KrF	2,41 – 4,00	0,23 – 0,78	< 0,001*

Miqdoriy ko'rsatkichlar Shapiro–Uilk mezonini yordamida normal taqsimotga muvofiqligi nuqtayi nazaridan baholandi. Normal taqsimot mavjud bo'lmagan hollarda miqdoriy ma'lumotlar yuqori va quyi kvartillar ($Q_1 - Q_3$) yordamida tavsiflandi. Taqsimlanishi me'yordan farq qilgan miqdoriy ko'rsatkichlar bo'yicha ikki guruhni taqqoslash Mann–Uitni U-mezonini yordamida amalga oshirildi.



Olingan ma'lumotlarga asosan, mitral regurgitatsiya (MR) aniqlanishiga qarab laktat, kislorod va kreatinfosfat (KrF) darajalarini baholashda statistik jihatdan muhim farqlar aniqlandi ($r < 0,001$).

Muayyan natijani bashorat qilishda miqdoriy belgilarning diagnostik aniqligini baholash uchun ROC-egri chiziqlari tahlil qilindi. Belgilarning ajratuvchi qiymatlari ROC-egriining kesish nuqtasida Yuden indeksi (Youden index) maksimal bo'lgan nuqta asosida belgilandi. Farqlar $p < 0,05$ darajasida statistik jihatdan ahamiyatli deb hisoblandi. Diskriminatsion qobiliyatni ROC tahlili yordamida baholash natijasida quyidagi egri chiziqlar olindi (1-rasm).



1-rasm. Kardiometriyada MRni bashorat qilishda Laktat, Kislorod va KrFning diskriminatsion qobiliyatini tavsiflovchi ROC egri chizig'i.

Laktat MRning statistik jihatdan ahamiyatli prediktoridir ($AUC = 1,000$; 95% CI: 1,000 - 1,000, $r < 0,001$). Yuden indeksining eng yuqori qiymatiga mos keladigan kesish nuqtasida Laktatning chegara qiymati 3,450 ni tashkil etdi. Laktat qiymati ushbu qiymatdan yuqori yoki unga teng bo'lganda MR bashorat qilingan (4-jadval).

4-jadval.

Chegara	Sezgirlik (Se), %	Spesifiklik (Sp), %	PPV	NPV
Laktat				
6,81	68,4	100,0	100,0	64,7
3,45	100,0	100,0	100,0	100,0
3,00	100,0	72,7	86,4	100,0
Kislorod				
4,00	100,0	54,5	79,2	100,0
3,40	100,0	72,7	86,4	100,0



3,00	100,0	90,9	95,0	100,0
0,70	78,9	90,9	93,8	71,4
0,45	57,9	90,9	91,7	55,6
4,00	100,0	54,5	79,2	100,0
KrF				
3,00	100,0	63,6	82,6	100,0
2,63	100,0	72,7	86,4	100,0
2,20	94,7	72,7	85,7	88,9
2,00	94,7	90,9	94,7	90,9
1,18	84,2	90,9	94,1	76,9
1,09	84,2	100,0	100,0	78,6
3,00	100,0	63,6	82,6	100,0

Olingan prognostik modelning sezgirligi va o'ziga xosligi mos ravishda 100,0% va 100,0% ni tashkil etdi. Shuningdek, kislorod MRning statistik ahamiyatli prediktoridir (AUC = 0,923; 95% CI: 0,807 - 1,000, $p < 0,001$). Yuden indeksining eng yuqori qiymatiga mos keladigan kesish nuqtasidagi kislorodning chegara qiymati 3000 ni tashkil etdi. MR kislorodning ushbu qiymatdan past qiymatida bashorat qilingan. Olingan prognostik modelning sezgirligi va o'ziga xosligi mos ravishda 100,0% va 90,9% ni tashkil etdi. Yuden indeksining eng yuqori qiymatiga mos keladigan kesish nuqtasida KrF ning chegara qiymati 2000 ni tashkil etdi. MR ushbu qiymatdan past bo'lganda bashorat qilingan. Olingan prognostik modelning sezgirligi va o'ziga xosligi mos ravishda 94,7% va 90,9% ni tashkil etdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, olingan ma'lumotlar bolalarda o'tkir revmatik isitmaning (O'RI) paydo bo'lishi va rivojlanishi yurakning muhim tarkibiy hamda funksional o'zgarishlari bilan kechishini ko'rsatmoqda. O'RI bilan kasallangan bolalarda kardiometrik ko'rsatkichlarda xarakterli o'zgarishlar kuzatiladi: laktat darajasining ortishi fonida kislorod va kreatinfosfat miqdorining sezilarli pasayishi aniqlanadi. Bu holat yurak faoliyati samaradorligining pasayganini anglatadi. Ushbu bolalarni yurak mushaklarida patologik metabolik jarayonlar rivojlanishi va yurak-qon tomir tizimi funksiyalarining buzilishi xavfi yuqori bo'lgan guruhga kiritish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Андрияшкина Д.Ю., Н.А. Шостак, А.В. Аксенова, Д.В. Абельдяев Острая ревматическая лихорадка и ревматическая болезнь сердца: что нового? // Клиницист. 2023 том 17 //2023. с-12-21.
2. Jamei Khosroshahi A, Kahani V, Shirvaliloo M, Sadeghvand S. Sydenham's Chorea in Children with Acute Rheumatic Fever: An Echocardiographic Survey of Pediatric Patients in Northwestern Iran. Iran J Med Sci. 2024 Jul 1;49(7):413-420.
3. Liang Y, Yu D, Lu Q, Zheng Y, Yang Y. The rise and fall of acute rheumatic fever and rheumatic heart disease: a mini review. Front Cardiovasc Med. 2023 May 23;
4. McMillan DJ, Rafeek RAM, Norton RE, Good MF, Sriprakash KS, Ketheesan N. In Search of the Holy Grail: A Specific Diagnostic Test for Rheumatic Fever. Front Cardiovasc Med. 2021; 8:674805. Published 2021 May 14. P.1-8.
5. Pereira BAF, Belo AR, Silva NAD. Rheumatic fever: update on the Jones criteria according to the American Heart Association review - 2015. Rev Bras Reumatol Engl Ed. 2017 Jul-Aug;57(4):364-368.
6. Rémond M., D. Atkinson, A. White, A. Brown, J. Carapetis, B. Remenyi, et al., Are minor echocardiographic changes associated with an increased risk of acute rheumatic fever or progression to rheumatic heart disease? Int. J. Cardiol. 198 (2015 Nov 1) 117–122.
7. Мухамдиева Л., Кудратова З. Оценка эффективности модифицированной терапии кларитромицина в сочетании с галавитом в лечении атипичной микрофлоры у детей с острым обструктивным бронхитом //Актуальные вопросы практической педиатрии. – 2023. – Т. 1. – №. 1.
8. Мухамдиева Л. А. Эндоскопические методы лечения детей с хронической патологией органов дыхания // ПЕДИАТРИЯ. – 2022. – Т. 10. – №. 4. – С. 529-537.
9. Atamurodovna M. L., Sulaimonovna U. S., Botiraliyevich N. B. CLINICAL FEATURES OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN AT THE PRESENT STAGE //Достижения науки и образования. – 2023. – №. 2 (89). – С. 48-51.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>